

O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi

2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, respublikada 59,8 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarning katta qismi quyidagilarga:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 11,9 mingta (20,0 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 8,3 mingta (13,8 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 6,0 mingta (10,0 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 4,8 mingta (8,0 %);
- mebel ishlab chiqarish – 4,1 mingta (6,9 %);
- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,7 mingta (6,2 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 2,8 mingta (4,7 %) to'g'ri keldi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra



II. O'zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan **1 101,1** trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **6,8** foizga oshgan.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
O'zbekiston Respublikasi	1 101 130,8	106,8
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog'iston Respublikasi	29 094,0	105,3
Andijon viloyati	107 885,0	107,2
Buxoro viloyati	53 490,1	107,1
Jizzax viloyati	35 256,2	114,3
Qashqadaryo viloyati	47 788,6	107,2
Navoiy viloyati	195 226,4	108,3
Namangan viloyati	40 087,4	109,1
Samarqand viloyati	57 767,5	108,5
Surxondaryo viloyati	18 833,2	109,3
Sirdaryo viloyati ¹⁾	26 284,3	108,7
Toshkent viloyati	170 294,1	106,6
Farg'ona viloyati	59 364,4	107,3
Xorazm viloyati	34 276,1	108,4
Toshkent shahri	207 285,2	107,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda Navoiy viloyatida (**176,9** mln so'm), Toshkent shahrida (**65,9** mln so'm), Toshkent viloyatida (**54,3** mln so'm), Andijon viloyatida (**30,9** mln so'm) respublika o'rtacha ko'rsatkichi (**29,1** mln so'm)dan yuqori natijalar qayd etilgan.

Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **104,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, Jizzax viloyatida **112,1** %, Namangan viloyatida **107,0** %, Surxondaryo viloyatida **106,9** %, Sirdaryo viloyatida **106,8** % qayd etilib respublika ko'rsatkichidan yuqori natija qayd etilmoqda.

¹⁾viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini takomillashtirishni hisobga olgan holda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-dekabr oylarida



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(oylik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **947,2** trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **86,0** foizni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **77,0** trln so'm (**7,0** %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **70,8** trln so'm (**6,4** %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **6,1** trln so'm (**0,6** %)ni tashkil etdi.

Seksiyalar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B - tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishdan tashkil topgan.

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yil yanvar-dekabr oylarida respublikada quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: tabiiy gaz – 42,3 mlrd m³, neft – 655,7 ming t, ko'mir – 8,9 mln t, avtomobil benzini – 1 200,2 ming t, dizel yoqilg'isi – 1 158,1 ming t, portlandsement – 20,2 mln t, ip kalava – 592,9 ming t, bug'doy va spelta uni – 1 227,5 ming t.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr ¹⁾	2024-yil yanvar-dekabr ¹⁾	2025-yil yanvar-dekabr
Avtomobil dvigatellari, dona	269 247	269 943	248 247
Avtomobil benzini, ming t	1 332,9	1 286,8	1 200,2
Dizel yoqilg'isi, ming t	1 012,5	976,3	1 158,1
Ko'mir, mln t	6,5	8,2	8,9
Neft, ming t	779,7	712,0	655,7
Tabiiy gaz, mlrd m ³	46,7	41,3	42,3
Gaz kondensati, ming t	1 198,0	1 187,1	1 111,3
Portlandsement, mln t	12,4	15,4	20,2

¹⁾2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – **19,6** %, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – **15,8** %, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunolari ishlab chiqarish va mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatishning ulushi – **18,5** % hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – **6,9** foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi **1,1** foizni, o'rta-yuqori texnologiyali – **19,5** %, o'rta-quyi texnologiyali – **39,3** %, quyi texnologiyali **40,1** foizni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni yanvar-dekabr oylarida donada

Sanoat mahsulotlari	2024-yil	2025-yil
Yuk avtomobillari	3 558	4 460
Yengil avtomobillar	429 139	457 883
<i>shundan:</i>		
<i>Maxsus yengil avtomobillar</i>	25 464	54 301
“Cobalt”	164 887	161 152
“Damas”	101 912	93 681
“Gentra”	12 837	-
“Tracker”	45 918	50 362
“Onix”	41 661	33 122
“KIA”	22 063	26 317
“Chery”	7 072	9 354
“Haval”	3 315	9 344
“BYD”	4 004	20 200
“Tank 500”	-	50
“LADA”	6	-

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish **104,0** foizni, yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa **88,6** foizni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr ¹⁾	2024-yil yanvar-dekabr ¹⁾	2025-yil yanvar-dekabr
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt soat	77 673,0	81 552,0	84 787,8
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	77 019,6	71 018,3	62 939,5
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlari asosida)</i>	653,4	10 533,7	21 848,3
Issiqlik energiyasi, ming Gkal (yirik korxonalar)	24 302,7	22 687,0	20 405,7
Ko'mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo'lgan gaz, mln m ³ (yirik korxonalar)	77,4	117,1	45,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasi (yirik korxonalar tomonidan)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida **14,2** foizga, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda **16,0** foizga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr ¹⁾	2024-yil yanvar-dekabr ¹⁾	2025-yil yanvar-dekabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	464,6	643,4	746,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	422,2	410,3	410,3
To'qimachilik chiqindilari, t	19 744,7	22 633,7	25 845,2

¹⁾2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan



IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O'zDSt 2014:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

V. Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
O. Izmailov
+998 71 203-80-00 (1205)

